

SIFATLI TA'LIM – BILIM BA FIDOIYLIK XOSILASI

G.N.Eshchanova

Qo'qon universiteti “Ta'lim”

kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda, maktabgacha ta'limda sifatga erishish uchun pedagogik jarayon motivatsion tizimli faoliyat yondashuviga asoslangan bo'lishi, har bir o'rganayotgan mavzusini, shaxsiy va meta-mavzular sifatida olib borish, hayotiy tajribani kengaytirish, bilimlarni tizimli qo'llash haqida yoritiladi.*

Tayanch so'zlar: *Sifatli ta'lim, pedagogik jarayon, bilim, fidoiylik xosilasi, motivatsion tizim, amaliy natija.*

Mamlakatimizda davlat hamda sohaning yeakchi olimlari, bir qator ilmiy hamjamiyatlar tomonidan maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar va fundamental izlanishlar asosida yechim topish modelini shakllantirish paradigmalari ishlab chiqildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq: O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari: maktabgacha ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish; maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish; bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan samarali foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish; maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash; maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishlashni ta'minlash. Hujjat erishilgan natijalar, maqsadli ko'rsatkichga va tegishli davrga (2019-2024-yil. va 2025-2030-yil.) mo'ljallangan asosiy yo'nalishdan kelib chiqqan holda har yili tasdiqlanadigan alohida “Yo'l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta'minlovchi muhim manba bo'lgan sifatli maktabgacha ta'limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Haqli ravishda aytishimiz mumkinki, ta'lim natijalariga qo'yiladigan talablarni belgilab



bergan ushbu konsepsiya va “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’grisida”gi Qonun, O’zbekiston respublikasi vairlar mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to’grisida”gi 22.12.2020 yildagi 802-sonli qaror maktabgacha ta’lim tizimida sifatni ta’minlash borasidagi islohotlar va faol yangilash mexanizmini shakllantirishning “Yo’l xaritasi” vazifasini o’tamoqda.

Yuqoridagi hujjatlar talabiga mos ravishda maktabgacha ta’limda bolaning shaxsini rivojlantirish, masalasi keng qamrovli tarzda amalga oshirishni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimining markaziy elementlari sifatida qarlgan holda, bugungi kunda bolalar uchun qo’shimcha ta’limning doimiy o’sib borayotgan tarmoqlari, zamonaviy muhitlar, bolalarda o’z-o’zini tarbiyalashga ko’mak beradigan elektron vositalar bilan to’ldirilmoqda. Shu munosabat bilan yondashadigan bo’lsak, maktabgacha ta’limda sifatni ta’minlash tizimli ustuvor yo’nalishga aylandi.

Maktabgacha ta’limning zamonaviy sifati va moslashuvchanligi sohada faoliyat yurituvchi pedagog-tarbiyachilar, ota-onalar, xususan, shu ta’lim-tarbiydan haqiqiy manfaatdor tomon, ya’ni, bolalarning faol ishtiroki orqali amalga oshiriladi. Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarng oilalar bilan hamkorlik aloqalari zamon talablari darazasida tashkil etishga qaratilganligi faoliyatning ustuvor yo’nalishlaridan biri bo’lib kelmoqda. Bunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ochiqligi, bolalar, ularning oilalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda mahalliy hamjamiyatlarning tashabbuskorligi va faolligi uchun keng imkoniyatlarga ega bo’lishi ham sohani rivojlantirishda pedagogik jarayonini tashkil etishga yangicha yondashuvlarni ta’min etmoqda. Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilga ko’plab xalqaro ta’lim loyihalarining amaliy natijalari, tizimda axborot almashuvlarini ta’min etuvchi axborot resurslari faoliyati xususan, ta’lim sohasidagi innovatsiyalarning moliyaviy ta’minotiga qaratilayotgan e’tibor natijasida pedagog-tarbiyachilarning innovatsion madaniyati, axborot kompetensiyasi, kompyuter savodxonligi oshdi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim tizimining asosi sifatida qaralishi natijasida bugungi kunda bolalar uchun qo’shimcha ta’limning doimiy o’sib borayotgan tarmoqlari, zamonaviy muhitlar, shu jumladan asosiy o’z-o’zini tarbiyalashga yordam beradigan elektron vositalar bilan to’ldirilmoqda, ta’lim-tarbiyani tshkil etishda qo’llanilayotgan STEAM, Vitagen texnologiyasi, IMEN pedagogikasi bolalarning intellectual rivojlnishi bilan birga hayotiy muammolarni hal qilishda o’z qarashlariga ega bo’lish ko’nikmalarini kamol toptirishga xizmat qilmoqda.

Shiddat bilan rivojlanayotgan axborot va texnika asrida maktabgacha ta’limga quyidagicha yondashuv talab etiladi:

Birinchidan, erta va maktabgacha yoshdagi (etti yoshgacha) bolaning shaxsiyatini uning yoshi va individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda



o‘zbekona etnomadaniy va axloqiy me‘yorlar asosida ijtimoiylashuviga erishish, har tomonlama rivojlantirish.

Ikkinchidan, maktabgacha ta‘lim xizmatlaridan maksimal darajada teng foydalanishni ta‘minlaydigan infratuzilma va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni rivojlantirish. Jumladan: yashash joyidan, oilalarning ijtimoiy va moddiy ahvolidan qat‘iy nazar erta va maktabgacha yoshdagi bolalarning, imkoniyati cheklangan bolalarning ham sifatli ta‘lim-tarbiya olishiga erishish; yangi zamonaviy sharoitlar yaratish; ta‘lim tashkilotlari o‘rtasida tarmoq o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish; maktabgacha ta‘limni boshqarishning zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy etish va takomillashtirish.

Uchinchidan, maktabgacha ta‘lim tizimida bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ta‘lim natijalari va ijtimoiylashuv natijalarining zamonaviy sifatiga erishishga qaratilgan mazmuni (ta‘lim dasturlari) va ta‘lim muhitini modernizatsiya qilish. Ushbu muammoni hal etish pedagogik xodimlarning sifatli mehnatini rag‘batlantirish.

To‘rtinchidan, ochiqlik, xolislik, oshkoralik, ijtimoiy va kasbiy ishtirok etish tamoyillari asosida umumiy o‘rta ta‘limdagi singari maktabgacha ta‘limda ham sifatni baholashning zamonaviy tizimini yaratish va ta‘lim sifatini oshirishga doir yechimlarni ishlab chiqish va jamoatchilik ishtirokini kengaytirish.

Beshinchidan, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagog-kadrlarining tarkibi va malakasini zamon talablariga mos tarzda yangilash, pedagog-tarbiyachilarning ish sifatini oshirish va tizimli tarzda malaka oshirishlarini ta‘minlash, uzluksiz ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarini yaratish va nuni vaqtida rag‘batlantirish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta‘limda sifatga erishish uchun pedagogik jarayon motivatsion tizimli faoliyat yondashuviga asoslangan bo‘lishi, har bir o‘rganayotgan mavzusini, shaxsiy va meta-mavzular sifatida olib boorish, hayotiy tajribani kengaytirish, bilimlarni tizimli qo‘llash talab etiladi. Biz ko‘rib chiqqan masalalarning barcha maktabgacha ta‘limda sifatni ta‘minlashga xizmat qiladi, xususan yuqoridagi barcha masalalarning amalga oshishi uchun oxirgi beshinchi masalani zudlik bilan amalga oshirilishi zarur. Chunki, maktabgacha ta‘lim tizimida kasbiy tayyorgarlik va kompetensiya ijtimoiy-pedagogik jarayonning asosi bo‘lib, pedagog-tarbiyachining ilmiy - pedagogik salohiyati yuqorida keltirilgan Qonun va qarorlar ijrosini hamda “Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” dan ko‘zlangan vazifalarni amalga oshirishini ta‘minlanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kaldybaeva T. Zh. Sociological concept of preschool education. dissertation abstract.2000.
2. Kogan L.Sh. General and special education as an object of sociological research / L. Sh. Kogan // Problems of general education of workers in industrial enterprises of the Urals: Sat. Art. - Sverdlovsk, 1969.
3. Mayer VV Sociological concept of formation of the quality management system of higher education. dissertation abstract. 2007.
4. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.
5. Gulnara Narimanovna Eshchanova. (2023). SOCIOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION AND INTEGRATION OF EDUCATIONAL TASKS. Web of Teachers: Inderscience Research, 1(9), 132-135. Retrieved from <https://webofjournals.com/index.php/1/article/view/510>
6. G. Eshchanova. "PARADIGMS FOR SOLVING PROBLEMS OF PRESCHOOL EDUCATION" Science and innovation, vol. 2, no. B10, 2023, pp. 424-428. doi:10.5281/zenodo.10058525
7. O'tbosarovna I. Y. Improving the professional pedagogical preparation of students to interact with children's mechanisms //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – Т. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
8. Yo I. MULOQOT JARAYONIDA BOLA SHAXSINI RIJOVLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 165-169.
9. O'tbosarovna I. Y. Pedagogical opportunities for improving the readiness of students to interact with children //Confrencea. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 268-270.
10. Ирисбаева Ё. У. ТЕОРИЯ ДЕТСКОЙ ИГРЫ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ //Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2023. – С. 26-32.
11. Ирисбаева Ё. У. СВЯЗНАЯ РЕЧЬ-ГЛАВНОЕ ДОСТИЖЕНИЕ В РЕЧЕВОМ РАЗВИТИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Экономика и социум. – 2021. – №. 10 (89). – С. 695-698.
12. Shamsiddinovich M. A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TO 'G 'RI TASHKIL ETISH OMILI SIFATIDA: Musayev Ashurali Shamsiddinovich, Yangi asr universiteti o 'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 309-313.



13. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.

14. Musaev A. TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 146-149.

15. Мусаев А. Ш. РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИ ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ //E Conference Zone. – 2022. – С. 125-128.

16. Мусаев А. Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОМПЕТЕНТЛИ МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШДА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ //E Conference Zone. – 2022. – С. 115-117.

